



CANADA

INTERNATIONAL SCIENTIFIC
ONLINE CONFERENCE

INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION



**23 APRIL
2023 YEAR**

CANADA, OTTAWA





INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION

International scientific-online conference

Part 16
April 23rd
COLLECTIONS OF SCIENTIFIC WORKS

CANADA 2023

INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific online conference (23rd April, 2023) – Canada, Ottawa : "CESS", 2023. Part 16–191 p.

Chief editor:

Candra zonyfar - PhD Universitas Buana Perjuangan Karawang, Indonesia
Sunmoon University, South Korea.

Editorial board:

Martha Merrill - PhD Kent State University, USA

David Pearce - ScD Washington, D.C., USA

Emma Sabzalieva - PhD Toronto, Canada

Languages of publication: русский, english, казакша, o'zbek, limba română, кыргыз тили, Հայերէն....

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference

"INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION".
Which took place in Ottawa on April 23, 2023.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.

© "CESS", 2023
© Authors, 2023

Ibrohimova Nargiza Pahlavonjon qizi <i>SARATON HUJAYRALARI VA ULARNING KELIB CHIQISHI</i>	
Nilufar Abdumutalib qizi Kurbanova <i>LEONARDO DA VINCHINING ANATOMIK IZLANISHLARI MAXSULI "VITRUVIAN ODAM" ASARINING YARALISH TARIXI</i>	130
Almamatova Manzura Shavkatovna <i>INNOVATIVE METHODS IN FOREIGN LANGUAGE LEARNING METHODOLOGY</i>	134
Komilova Khabibakhon Zafarbek kizi <i>THE ROLE OF COUNTING RHYMES IN TEACHING NEW LANGUAGES FOR CHILDREN</i>	138
Umurova Khushvakt Hakimovna <i>UZBEK NATIONAL CUSTOMS AND TRADITIONS AND THEIR SPECIFIC FEATURES</i>	142
Абдумалик Искандарович Эшниязов <i>О КРАЙНИХ ТОЧКАХ МНОЖЕСТВА БИСТОХАСТИЧЕСКИХ ОПЕРАТОРОВ</i>	149
Kudekova Nargiza <i>GUIDING STUDENTS TO BECOME INDEPENDENT LEARNERS</i>	159
Nazarova Navbahor Ahrorovna Akhmedova Marjona Rashidovna <i>DIFFERENCES BETWEEN AMERICAN AND BRITISH ENGLISH</i>	162
Izzat Ikromovich Akramov <i>THEORETICAL FEATURES OF APHORISMS</i>	168
Qobilova Nargiza Sulaymonovna Hojiyeva Marjona Tolkinovna <i>GENERAL PROHIBITION AND ITS COMPONENTS</i>	173
Abdujalilov Orifjon Maxmudovich <i>ISHLAB CHIQARUVCHI KOMPANIYALARNING DASTURIY TA'MINOT BOZORI VA MAHSULOT STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQARILGAN DASTURIY MAHSULOTLAR BO'YICHA TAHLIL QILISH</i>	178
Nazarova Navbahor Ahrorovna Muhiddinova Marjona <i>INTERFAOL TA'LIM METODLARINING AHAMIYATI</i>	185

INTERFAOL TA'LIM METODLARINING AHAMIYATI

Nazarova Navbahor Ahrorovna*Buxoro Davlat Universiteti**Ingliz tilshunosligi kafedrası o'qituvchisi***Muhiddinova Marjona***Xorijiy tillar fakulteti talabasi*

Abstract: *This article discusses the use of modern teaching methods in education, especially the importance and effectiveness of interactive methods in ensuring the interaction of students in learning a foreign language through games, developing their creativity, as well as realizing the hidden possibilities in their thinking.*

Keywords: *methods, interactive, attitude, education, solution, puzzle, games, interest, practical activities, imagination.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tahsil berishda zamonaviy ta'lim usullaridan foydalanish, ayniqsa o'quvchilarning o'yinlar orqali chet tilini o'rganishda o'zaro muloqotga kirishishni ta'minlash, ijodkorligini rivojlantirish, shuningdek tafakkurida mavjud yashirin imkoniyatlarni ro'yobga chiqarishda interfaol usullar ahamiyati va samaradorligi to'g'risida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *usullar, interfaol, munosabat, ta'lim, yechim, topishmoq, o'yinlar, qiziqish, amaliy mashg'ulotlar, tasavvur.*

Keyingi yillarda mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohatlarning asosini jahon ta'limi standartlariga javob bera oladigan ilg'or tajribalarni ommalashtirish hamda ta'lim-tarbiya jarayonida yuqori samaradorlikka erishish yo'lida amaliy faoliyatlar olib borilmoqda. Hozirgi vaqtda o'qituvchilar oldida turgan eng muhim va dolzarb vazifa o'quvchilarning ilm olishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, ularning tasavvurlarini kengaytirish va komil inson qilib tarbiyalashdan iborat. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng, chet tillarni o'rgatishga qiziqish oshdi va yoshlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratib berildi. Respublikamizda chet tilining o'qitilishi, chet tili o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalarini baholashning umumevropa ramkalari tavsiyanomalari (CEFR) ga mos ravishda yangi usul va talablari ishlab chiqildi. Unga ko'ra umumta'lim maktablari va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun darsliklar yaratildi, talablarga mos ravishda o'quv xonalari stendlar va yangi axborot kommunikativ texnikalar bilan jihozlandi. Chet tili fani to'rt aspektga (o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish) bo'linib, ularning har biri bo'yicha alohida tushuncha va ko'nikmalar berilmoqda.

Ta'lim texnologiyalari, bu ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishdir. Shuningdek, ta'lim jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarini olib kirish orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirishni

nazarda tutadi. Xususan, chet tilini o'rganishda bunday axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning bir qancha afzalliklari mavjuddir. Til o'rganish va o'qitishda zamonaviy texnologiyaning roli beqiyosdir. Texnologik vositalardan foydalanish chet tili o'rganishning har bir aspekt (o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish)ida qo'l keladi. Masalan, tinglab tushunish uchun, albatta kompyuter, player, CD diskarsiz bu jarayonni amalga oshirish mumkin emas. Tinglab tushunish til o'rganishning eng muhim qismlaridan biridir. Bunda o'quvchi bir paytning o'zida so'zlovchining talaffuzi, grammatik qoidalarga rioya qilganligi, so'z boyligi va uning ma'nosiiga e'tibor berishi talab qilinadi. Ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda o'quvchilar ham axborot — kommunikatsion texnologiyalarni yaxshi bilishlari va ulardan foydalana olishlari muhim omil hisoblanadi. Chet tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o'rgatish va o'rganish eng samador usullardan biridir.

Bu jarayonda, jumladan:

- kompyuterlardan foydalangan holda chet tilidagi video roliklarni, namoyishlarni, dialoglarni kino yoki multfilmlarni ko'rish va eshitish mumkin;
- chet tilidagi radio eshittirishlar va televideniya dasturlarni eshitish, tomosha qilish mumkin;
- ancha an'anaviy usul hisoblangan magnitofon va kassetalardan, CD pleyerlardan foydalanish mumkin;

Bu texnik vositalardan foydalanish chet tili darslarini qiziqarliroq va samaraliroq bo'lishini ta'minlaydi.

Bugungi kunda maktablarda interfaol o'yinlar orqali dars o'tish an'anaga aylanib bormoqda. Ma'lumki, darsning turli xil o'yinlar asosida o'tilishi o'quvchilarning imkoniyatlarini namoyish etish, bilim va ko'nikmalarini oshirish va kuchli bo'lishlarini ta'minlaydi. "Interfaol" inglizcha so'z bo'lib, "interact": "inter" - o'zaro va "act" - harakat qilmoq), ularni umumlashtirganda esa, "Interfaol" - harakat qilmoq ma'nolarini anglatadi. "Interaction" - o'zaro munosabatda bo'lish, muloqot qilish, o'zaro hamkorlikni (boshqalar bilan) bildiradi. Ya'ni, o'qitishning interfaol uslublari – bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli hisoblanib, unda ta'lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan holda biladigan va o'ylayotgan narsalarini anglaydilar va fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Insonlar psixologiyasining birgalikdagi munosabat va harakatiga asoslangan o'qitish interfaol o'qitish usuli deyiladi. Indivud sifatida alohida o'qiydigan emas, aksincha, guruh bilan birga faoliyat yurituvchi, savollarni o'zaro kelishib bahslashib muhokama qiluvchi bir-birini qo'zg'atib va faollashtirib boradigan o'quvchi va o'qituvchi faoliyati markaziy o'rinni egallaydi. Interfaol usulni qo'ilaganda hammasidan ko'ra bellashuv, raqobat, tortishuv ruhiyatini intellektual faolligiga kuchli ta'sir etadi. Bu insonlar uyushgan holda muammoni yechishni izlaganlarida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, shunday psixologik omillar ta'sir qiladigan, atrofdagilar tomonidan

bildirilgan har qanday fikrga o'zining shunga o'xshash, yaqin yoki aksincha mutlaqo qarama-qarshi fikr bildirishga da'vat etadi. Interfaol o'qitish usullari ayniqsa, amaliy mashg'ulotlarda juda yaxshi samara beradi. Interfaol o'qitish usullarni qo'llashda o'qituvchining vazifasi guruh ishlarini tashkil qilishdan va mikroguruh yetakchilarini boshqarishdan iborat bo'ladi. Demak, o'qituvchi boshqaruvchi, yo'naltiruvchi bo'lishi shart. O'qituvchi o'rgatadi, o'quvchi o'rganadi. Interfaol usullardan qay birini va qay darajada qo'llash o'qituvchining mahoratiga bog'liq. Tabiiyki, bunday hollarda bu usullarni qo'llaganda o'quvchilarning bilim saviyasini va imkoniyatlarini e'tiborga olish zarur. O'qituvchining pedagogik jarayondagi asosiy vazifasi — boshqaruvchilik. U shaxsning shakllanishi, rivojlanishi, bilim olishi va tarbiyalanishi jarayonini boshqaradi. Boshqarish bu — yo'naltirish, vazifa qo'yish, o'rgatish, yordam berish, qo'llab — quvvatlash, maslahat berish, rahbarlik qilish, kuzatish, talab qilish va ko'rsatma berishdir. Dars jarayonida o'quvchilarning faolligini oshirish uchun o'qituvchi quyidagilarga e'tibor berishi zarur:

- Yangi pedagogik texnologiyalarni va interfaol usullarni qo'llagan holda darslarning noan'anaviy shakllaridan ko'proq foydalanish:

- a) musobaqa darslari;
- b) munozara darslari;
- d) sayohat darslari;
- e) ko'rik darslari.

- Maktabda o'quvchilarning til o'rganishiga qaratilgan tadbirlar, kechalar, mushoiralar va intellektual o'yinlar o'tkazish;

- Maktablararo chet tilini chuqur o'rganuvchi "klublar", "jamiyatlar", "kichik fan akademiyalari"ni tashkil etib, ularning faoliyatini rivojlantirish maqsadida olimlarni jalb etish;

Ta'lim jarayoni darsda ko'zda tutilgan natijalarga erishish uchun tahsil beruvchidan bir qator majburiyatlarni ko'ndalang qo'yadi: o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash, ularni ruhiyatlarini ko'tarish, mavzuga qiziqтира olish, xonada faol harakatlar qilish, guruhlar topshiriq va vazifalarini nazorat qilish, xatolarni qayd qilib borish, intonatsiyani tekshirish, tushunmovchiliklarni bartaraf etish, yangi so'z va iboralarni doskaga yozib borish, tarqatma materiallar berish va audiovizual uskunalardan foydalanish. Ammo shuni ta'kidlash joizki, ba'zida o'qituvchining o'ta faol ishlashi talabalarning mustaqil fikrlashiga salbiy ta'sir ko'rsatish ehtimolligini oshirishi ham mumkin. Sababi, o'qituvchi o'quvchilardan ko'ra faolligi ustun bo'lsa, talabalarning bilim olishlari uchun shunchalik kam vaqt ajratiladi. Bolalarning interaktivligiga yo'naltirilgan darsning maqsadi esa, ularga imkon qadar ko'p faol imkoniyatlarga ega bo'lish, chet tilida erkin muloqot qilishga qo'yib berishdan iboratdir.

O'yin texnologiyasidan foydalanishning asosini o'quvchini faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyat tashkil etadi. Psixologlarning ta'kidlashlaricha, o'yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, hayotda

barqaror o'rnini topish, o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi. Har qanday o'yin zamirida umumiy qabul qilingan ta'lim prinsiplari, taktikasi yotishi kerak. O'quv o'yinlariga o'quv predmetlari asos qilib olinishi kerak. O'yinlar jarayonida o'quvchi oddiy darsga qaraganda bu mashg'ulotga qiziqibroq yondashadi va bemaolol faoliyat ko'rsatadi. Ta'kidlash lozimki, o'yin eng avallo, o'qitishning bir usulidir. O'quvchilar o'yinli texnologiyalarga asoslangan darslarga o'zgacha shijoat bilan qatnashib, g'alaba qozonishga intiladilar, ingliz tilida gapirish, tinglab tushunish, yozish ko'nikmalariga adaptatsiya hosil qilib, darsda faollashib boradilar, o'yinlar orqali o'quvchiga ta'lim-tarbiya ham berib boriladi. Ingliz tili darslariga qo'yilgan eng muhim talablardan biri talabalarni mustaqil fikrlashga o'rgatishdir. Albatta, hozirgi ta'lim jarayonida bu esa o'quvchini sub'ekt bo'lish zaruratini tug'diradi, bunda ko'proq interfaol metodlarga e'tiborni qaratish ta'lim sifatini oshiradi. Darhaqiqat, ingliz tilida tahsil berishda zamonaviy o'qitish usullari, ayniqsa o'yinlar

orqali til o'rganish jarayonida o'zaro muloqotga kirishishni ta'minlash, shuningdek o'quvchilarning ijodkorligini rivojlantirish, tafakkurida mavjud yashirin imkoniyatlarni ro'yobga chiqarishda quyidagi interfaol usullar, innovatsion metodlar orqali ko'zlangan maqsadga erishish va dars samaradorligini oshirish imkonini beradi.

– “Muammoli vaziyat yechimi” (Creative Problem Solving) bu usulni qo'llash uchun hikoyaning boshlanishi o'qib beriladi qanday yakun topishi o'quvchilar, talabalar hukmiga havola qilinadi;

– “Quvnoq topishmoqlar” (Merry Riddles) o'quvchilarga topishmoqlar o'rgatish. Ingliz tilini o'rgatishda muhim ahamiyatga ega, ular o'zlariga notanish bo'lgan so'zlarni o'rganadilar va o'ylab topishmoq javobini topadilar;

– “Tezkor javob” (Quick answers) o'tilgan dars samaradorligini oshirishda yordam beradi;

– “Chigil yozdi” (“Warm-up exercises”) o'quvchilarni darsga qiziqitirish uchun sinfdan har xil o'yinlardan foydalanish;

– “Pantomima” (pantomime) bu usul juda qiyin mavzular tushuntirilishi kerak bo'lgan darsda yoki yozma mashqlar bajarilib, talabalar charchagan paytda foydalanilsa bo'ladi;

– “Hikoya zanjiri” (a chain story) usuli o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirishda yordam beradi;

– “Rolli o'yinlar” (Acting characters) bu usul darsning barcha tiplarida qo'llanilishi mumkin.

Kasbiy ko'nikmalarni hosil qilishda “Interpreter”, “Translator”, “Writer”, “Poet” kabi kasblarga oid insonlarni darsga taklif qilib o'quvchilar bilan suhbatlar uyushtirish mumkin;

– “Allomalar yig'ini” (Thinkers meeting) U.Shekspir, A.Navoiy, R.Burns kabi shoirlar va yozuvchilarni “taklif qilish” mumkin. Bunday paytda ular aytib ketgan

hikmatli so'zlardan darsda foydalanish yoshlarni komil inson bo'lib tarbiyalanishiga yordam beradi;

– “Rasmlar so'zlaganda” (When pictures speak) usuli ancha qulay bo'lib, ingliz tilini o'rgatishda, talaba, o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishda yordam beradi, buning uchun mavzuga oid rasmlardan foydalanish lozim;

– Kviz kartochkalari (quiz cards) o'quvchilarning soniga qarab kartochkalar tarqatiladi va hamma talabalar bir vaqtda darsda ishtirok etish imkonini beradi bu esa vaqtni tejaydi.

Xulosa qilganda, darslarni tashkil etishda har bir innovatsion texnologiya nafaqat o'ziga xos ta'limiy afzalliklarga ega, balki o'quvchilarning o'yinlar orqali chet tillarini o'rganishida o'zaro muloqotga kirishishni ta'minlash, ijodkorligini rivojlantirish, shuningdek tafakkurida mavjud yashirin imkoniyatlarni ro'yobga chiqarishda ahamiyati cheksiz. Bunday usullarning barchasi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptiradi, ularning ta'lim jarayonidagi samarali imkoniyatlarini oshirib, yangi bilimlarni o'zlashtirishda yuksak natijalarga erishishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.Rasulov, Z. (2022). INFORMATION FORMING TOOLS (FACTORS) IN THE STRUCTURE OF DISCOURSE. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 15(15). https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/6981.

2.Ahrorovna, N. N. (2023). ANTROPONIMLAR TILSHUNOS OLIMLAR TADQIQIDA. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(2), 400-405.

3. Nazarova, N. (2023). BASES OF THE THEORETICAL STUDY OF ANTHROPONYMS AND THEIR CHARACTERISTICS. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 31(31). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/9285

4 . Nazarova, N. (2022). Обучение молодых учащихся через интерактивные игры. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 7(7). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/49

5. Ahrorovna, N. N. ., & Niginabonu, Y. . (2022). English Clubs in Non – Traditional Ways for Young Learners. Miasto Przyszłości, 30, 265–266. Retrieved from <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/912>

6.Nargiza Bobojonova Jumaniyozovna. (2022). The Term Concept in Modern Linguistics. Miasto Przyszłości, 28, 297–302. <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/643>

7.Nargiza Bobojonova Jumaniyozovna. (2022). Categorization in Modern Linguistics. Miasto Przyszłości, 28, 351–356. <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/653>

8. Jumaniyozovna, B. N. . (2023). The Category of Appeal in Cognitive Linguistics. Conference on Applied and Practical Sciences, 34–36.
<https://openconference.us/index.php/applied/article/view/761>
9. Khudoyberdievna, S. Z. (2022). THE MAIN FEATURES OF TRANSLATION OF PHRASEOLOGY FROM ENGLISH INTO UZBEK. Scientific Impulse, 1(3), 523-526. <https://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/1024>.
10. .Khudoyberdievna, S. Z. (2022). Modern Methods of Translating Phraseological Units. Eurasian Research Bulletin, 4, 153-158.
<https://geniusjournals.org/index.php/erb/article/view/516>.
11. Zarina Habibovna Usmonova. (2021). THE PECULIARITY OF FANTASTIC WORKS (ON THE EXAMPLE OF THE WORKS OF RAY BRADBURY, ISAAC ASIMOV AND STEPHEN KING). European Scholar Journal, 2(4), 499-503 <https://scholarzest.com/index.php/esj/article/view/684.59>.
12. Yuldasheva, F. (2021). The Expression of Politeness Category in The Uzbek And English Languages. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 1(1). извлечено от http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/2835
13. Kobilova, A. B. (2017). Different types of tests used in language teaching. Міжнародний науковий журнал Інтернаука, (1 (1)), 134-135.
<https://www.inter-nauka.com/issues/2017/1/1898>
14. Anvar Haydarov. (2020). Methodological features of graphic tools. Middle European Scientific Bulletin, 5. <https://doi.org/10.47494/mesb.2020.5.73>
15. KOBILOVA NARGISABEGIM SULAYMONBEKOVNA BENEFITS OF USING SONGS IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES TO YOUNG LEARNERS
<https://www.elibrary.ru/item.asp?id=35081671>
16. Akramov, I. (2021). ОСОБЫЕ ЗНАКИ, СВОЙСТВА И ХАРАКТЕРИСТИКИ АФОРИЗМОВ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 5(5). извлечено от http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/2386
17. Nazarova, N. (2022). Antroponimlarning o'rganilishi. Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes, 110- 112. <http://conferenceseries.info/index.php/online/article/view/59>.
18. Abdullayeva, G. G. . (2023). Ways of Motivating Young Learners in EFL Classroom. Miasto Przyszłości, 32, 122–124.
<http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/1109>
19. Khamidovna, N. N. (2023). STRUCTURE OF THE CONNOTATION COMPONENTS IN THE ADJECTIVES. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(2), 180-185.
<http://farspublishers.org/index.php/ijessh/article/view/442>
20. Saidova, M. U. (2019). THE STRUCTURAL COMPOSITION OF THE LITERARY TERMS IN LITERARY DICTIONARY" LITERARY TERMS AND

LITERARY THEORY" BY JA CUDDON. Международный академический вестник, (1), 73-76. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=36875142>

21. Yunusova, A. (2023). ОҒЗАКИ МАТНЛАРНИНГ СИНФДАГИ ТАҲЛИЛИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 30(30). https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/9182

22. Ubaydullayeva Muattar O'rinbekovna. (2022). Ingliz tilida frazeologik birliklarning ma'no munosabatlari: ko'p ma'nolilik va omonimiya. Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes, 300–304. Retrieved from

<https://www.conferenceseries.info/index.php/online/article/view/116>

23. Bozorova R. ГИДРОПОЭТОНИМЛАРНИНГ НЕМИС, ШЗБЕК ВА РУС ТИЛЛАРИДАГИ ФРАЗЕОЛОГИК БИРЛИКЛАРДА АКС ЭТИШИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 26. – №. 26.

24.Бозорова Р. Ш. “СУВ” СЎЗИ БИЛАН БОҒЛИҚ ФРАЗЕОЛОГИК БИРЛИКЛАРНИНГ НЕМИС, ЎЗБЕК ВА РУС ТИЛЛАРИДАГИ ТАҲЛИЛИ //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 277-282.